SHARTNOMA № 30

Urganch shahar «10» 01 2023 yil

Xorazm viloyati «Matbuot tarqatuvchi» Ma'suliyati cheklangan jamiyati bundan buyon matnda «Tarqatuvchi» deb ataluvchi nomidan G.Sharipov amalga oshiruvchi bir tomondan Xorazm viloyat Bandlik bosh boshqarmasi bundan buyon matnda «Obunachi» deb ataluvchi nomidan M. Sariev nizomga asosan faoliyat ko’rsatuvchi, ikkinchi tomondan, quyidagilar to’g’risida ushbu shartnomani tuzishdi.

**1.Shartnoma mazmuni:**

1.1. «Tarqatuvchi», «Obunachi»ning talabiga ko’ra O’zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarda chop etiladigan obuna katalogiga kiritilgan ushbu shartnomaning 1,2. bandida ko’rsatilgan davriy nashrlarga obuna uyushtirish bo’yicha «Tarqatuvchi» va «Obunachi» o’rtasida shartnoma tuzadilar.

1.2.Rasmiylashtiriladigan obuna nashrlarining ro’yhati va obuna narxi obuna nashrlarini yetkazib berish manzili, shartnomaning ajralmas qismi sanaluvchi ilovada ko’rsatiladi.

**2.Shartnoma narhi, bahosi, summasi (qiymati)**

2.1Shartnomaning umumiy qiymati (QQS summasi bilan) 1020000 (бир миллион йигирма минг сўм) summi tashkil qiladi.

**3. To’lov shartlari**

3.1 «Obunachi» «Tarqatuvchi»ning hisob-raqamiga shartnomada ko’rsatilgan mahsulot miqdori summasining 100 foizini oldindan o’tkazishni o’z zimmasiga oladi.

3.2. To’lov turi Пул ўтказиш йўли билан

**4. Shartnomaning bajarilish muddati**

4.1 Shartnoma imzolangan kunidan boshlab kuchga kiradi rasmiylashtirilgan obuna nashrlari tulik olguniga kadar amalda buladi.

**5. Taraflar xuquqlari**

5.1«Tarqatuvchi» quyidagi xukuklarga ega:

5.1.1 Ushbu shartnoma asosida belgilangan maxsulotlar uchun oldindan xak to’lashni va amaldagi shartnoma va qonun xujjatlarida belgilangan tartibda xisob-kitoblarni amalga oshirishni «Obunachi»dan talab qilishga:

5.1.2 «Obunachi» dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, maxsulotni qabul qilishdan asossiz ravishda rad qilish natijasida yetkazilgan zararni talab qilishga;

5.1.3. «Obunachi» ning roziligi bilan alohida to’lov evaziga qo’shimcha xizmatlar ko’rish (davriy bosma nashrlarni saqlash, obuna bo’yicha davriy bosma nashrlarni qayta manzillash va boshqalar)

5.2. Obunachi»chi qo’yidagi xuquqlarga ega:

5.2.1 navbatdagi obuna oyidan boshlab butun obuna davriga yoki uning bir qismiga, shuningdek muddatini o’zgan holda davriy bosma nashrlarga obunani rasmiylashtirish;

5.2.2. obunachi tomonidan imzolangan davriy bosma nashrlarni boshqa manzilga qayta manzillash;

5.2.3. davriy bosma nashrlarga obunani bekor qilish;

5.2.4. poligrafik nuqsoni bo’lgan davriy bosma nashrlarni olganda, davriy bosma nashrlarning tegishli sonini olmaganda, shuningdek, taxririyat yoki tarqatuvchining aybi bilan davriy bosma nashrlarni yetkazib berishning muddatlariga rioya qilinmaganda, taxririyat yoki tarqatuvchiga murojaat qilish hamda o’z xoxishiga binoan nuqsonsiz davriy bosma nashrning tegishli nusxasiga yoxud boshqa davriy bosma nashrning nusxasiga almashtirish, shuningdek, davriy bosma nashr ushbu nusxasining obuna haqini qaytarishni talab qilish;

5.2.5.Ushbu shartnoma asosida belgilangan maxsulotlarni o’z vaqtida va sifatli yetkazishni «Tarqatuvchi»dan talab qilishga:

5.2.6.«Tarqatuvchi»dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni talab qilishga;

**6. Taraflar majburiyati**

6.1. «Tarqatuvchi» quyidagilarga majbur:

6.1.1. «Obunachi» ni «Tarqatuvchi» ning obuna qabul qilish joylarining ish tartibi, obuna tartibi va shartlari, obuna buyicha tarkatiladigan davriy bosma nashrlarning narxlari to’grisida xabardor qilish;

6.1.2. Davriy bosma nashrlarni belgilangan muddatda obunachiga yetkazib berishni ta'minlash;
6.1.3. Qonun xujjatlarida belgilangan muddatlarda «Obunachi» ga yetkazib berilmagan nusxalarning obuna narxini qaytarib berish yoki xudi shunday yoxud boshqa davriy bosma nashr nusxasiga almashtirib berish;
6.1.4 «Obunachi» ga obunaning rasmiylashtirilganligini tasdiklovchi obuna hujjatini berish;
6.2 «Obunachi» ning majburiyatlari:
6.2.1 «Obunachi» obuna xujjatlarini to'ldirish buyicha «Tarqatuvchi» tomonidan belgilangan talablarga amal qilishi shart;
6.2.2. Maxsulotning baxosini ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda to'lash.
6.2.3. Poligrafik nuqsonga ega bulgan yoki tovar ko'rinishini yukotgan davriy bosma nashrlarning tarqatilishi bo'yicha «Tarqatuvchi» ni 1 kun muddatda xabardor qilish;

**7. Fors-major holatlari**

7.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, yer qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiy ofatlar shular jumlasidandir.
7.2. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzluksiz davom etsa, taraflar, bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

**8. Nizoni hal qilish tartibi**

8.1. Ushbu shartnomada yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi.
8.2. Taraflarning kelishuvi bilan xal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi orkali xal qilinadi.

**9. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi**

9.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ikkala taraf tomonidan yozma ravishda tuzilib, imzo qo'yilgandan keyingina yuridik kuchga ega bo'ladi.
9.2. Shartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

**10. Boshqa xolatlar**

10.1. Ushbu shartnoma ikkala taraf uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lib ikki nusxada tuzilgan.
10.2. Taraflarning boshqa talablari: —
10.3. Shartnomaga ilova: ____________________
10.4. Mazkur shartnoma imzolagandan keyin kuchga kiradi 2023 yil 31dekabrga kadar amal kiladi.
10.5.Shartnomaning bir nusxasi «Tarqatuvchiga» qaytarilishi shart.

**11. Taraflarning yuridik manzilgoxi va to'lov rekvizitlari**

**«Ta'minotchi»**

**«Matbuot tarqatuvchi» MChJ**

**Manzil: P.Maxmud 178 uy**

**X\r 20208000800350558001**

**Bank: Aloqa bank Urganch sh**

**MFO: 00401 INN 200 405 573**

**OKONX:71210**

**Tel: 78-770-50-15, 78-770-50-10**

**Direktor v.v.b:**

________________ **G.Sharipov**

**«Obunachi»**

Хоразм вил. Бандлик бош бош.си
Урганч шахар И.Дост кўчаси 2-уй
Тел: 62-224-12 23, 224-12-31
х/р: 400121860334017109120/41001
ИНН: 200413176 ОКОНХ: 84112
Ғазна х/р: 23402000300100001010
Марказий Банк Тош.ш ХККМ
МФО: 00014 ИНН: 201122919
________________ М. Сариев

# BUYURTMANOMA

fORMA MT № 16

Tershirildi
Ortiqchasi yo'q
Obuna qabul qilindi
Summasi ______ sum
MT Boshlig'i
______ (IMZO)

Qabul qilingan obuna
Summasi ____________
20___yil______________
20___yil______________
MT xisobchisi
____________________(IMZO)

Хоразм вилоят Бандлик бош бошқармаси
(Korxona,tashkilot,muassasaning nomi)

**Manzilgox:** Урганч шаҳар И.Досов кўчаси 2уй **Tel:** 224 1223

**2023 yil** февраль **oydan**

**Quyidagi gazeta va jurnallarga obuna qabul qilishingizni soraymiz**

| № | Nashrlarning nomi | Nusxa soni | Necha oyga | Summa (QQS bn) | Yetkazish varaqasining raqami(Mtda tolatiladi ) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Народное слово | 1 | 6 | 528000 | |
| 2 | Хорезмская правда | 1 | 6 | 138000 | |
| 3 | Ўзбекистон овози | 1 | 6 | 357000. | |
| 4 | | | | | |
| 5 | | | | | |
| 6 | | | | | |
| 7 | | | | | |
| 8 | | | | | |
| 9 | | | | | |
| 10 | | | | | |
| 11 | | | | | |
| 12 | | | | | |
| 13 | | | | | |
| 14 | | | | | |
| 15 | | | | | |
| 16 | | | | | |
| 17 | | | | | |
| 18 | | | | | |
| 19 | | | | | |
| 20 | | | | | |
| 21 | | | | | |
| 22 | | | | | |
| 23 | | | | | |
| 24 | | | | | |
| 25 | | | | | |
| 26 | | | | | |
| 27 | | | | | |
| 28 | | | | | |
| 29 | | | | | |
| 30 | | | | | |
| 31 | | | | | |
| 32 | | | | | |
| | **Jami:** | | | 1020000 | |

Obunaning qiymati daraknoma olingach to'lanadi.

М. Сариев
(raxbar imzosi)

Н. Рахимов
(xisobchi imzosi)